

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING AXBOROT-TAHLIL VA REJALASHTIRISH FAOLIYATI

Abdulhakimov Jahongir Shuhratjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi

311-guruh kursanti

Annatatsiya: Mazkur maqolada Profilaktika inspektorining axborot-tahlil va rejalashtitish faoliyati tushunchasi uning o'ziga xos xususiyatlari, profilaktika inspektorlarining mahalla fuqorolar yig'inlaridagi keng jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorligining samaradorligini oshirish va ularning aholi oldida hisobot berishi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar ko'rib chiqilgan.

Annotation: In this article, the concept of information analysis and planning activities of the prevention inspector, its specific features, the work to be carried out to increase the effectiveness of the cooperation of the prevention inspectors with the general public organizations in the community gatherings, and to improve their reporting to the population were considered.

Аннотация: В статье рассмотрено понятие информационного анализа и планирования деятельности инспектора по профилактике, ее особенности, проводимая работа по повышению эффективности сотрудничества инспекторов по профилактике с широкими общественными организациями в районных сходах граждан и для улучшения их отчетности перед населением.

Hozirgi tahlikali vaziyatda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyat davlat va shaxslarni qonuniy manfaatlari hamda jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulklarini har qanday ko'rinishdagi tahdidlardan himoya qilish, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni, millatlararo totuvlikni hamda barqaror taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir. Bugungi tahlikali zamonda mamlakatimizni turli xildagi tahlikali tajavuzlardan himoya qilish har birimizni asosiy vazifamiz bo'lib qolmoqda. Huquqbazarliklar Profilaktikasini amalga oshirish jarayonida har bir profilaktika (katta) inspektorlarining faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatida amalga oshirishi kerak bo'lган say harakatlar eng avvalo o'zida mavjud bo'lган axborotlarni tahlil qilish va mukkamal jihatdan tuzilgan reja asosida amalga oshirish kerak.

"Huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyatini rejalshtirish " – tushunchasini yoritishimizdan avval biz, profilaktika, huquqbazarlik, huquqbazarliklar profilaktikasi kabi tushunchalarni, huquqbazarliklar profilaktikasining asosiy vazifalarini hamda huquqbazarliklar profilaktikasini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi subyektlar faoliyatini huquqbazarliklar profilaktikasini obyektlarini aniqlab olishimiz lozim.

Chunki ushbu iboralar nafaqat huquq nazariyasi va amaliyotida, balki boshqa fan sohalarida ham qo'llaniladi. “Huquqbazarlik” tushunchasiga aniqlik kiritishda bir qator munozarali holatlar majud. Jumladan 2014-yil 14-may kuni qabul qilingan O'RQ-371-sonli “Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonunining 3-moddasida asosiy tushunchalarda ko'rsatilinib o'tilgan. Unga ko'ra:

Huquqbazarlik- sodir etilgani uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayriqonuniy qilmish (harakat yoki harakatsizlik);

Huquqbazarliklar profilaktikasi-huquq tartibotni saqlash, hamda mustahkamlash, huquqbazarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbazarliklarni umumiylashtirish, maxsus, yakka tartibdagi va viktimalogik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi;

Olib borilgan kuzatishlar hamda o'tkazilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, amaliyotda “huquqbazarlik” tushunchasini turlicha talqin etish uchrab turibdi. Amaliyot organlarida faoliyat yuritayotgan profilaktika inspektorlarining aksariyati huquqbazarlik deganda ma'muriy huquqbazarlikni nazarda tutishadi.

Professor X.T.Odilqoriyev huquqbazarlikni “huquq subyektining aybli, huquqqa zid, jamiyat, davlat va shaxs manfaatlariga zarar yetkazuvchi, yuridik javobgarlik keltirib chiqaruvchi qilmish” sifatida ta'riflashi bilan birga, uning ijtimoiy xavfllilik belgisiga e'tibor qaratadi. Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari faoliyatini, boshqarish va muvofiqlashtirish samarali tashkil etish mazkur faoliyatni rejalashtirishga bog'liq jarayon hisoblanadi.

Ichki Ishlar Organlari Huquqbazarliklar Profilaktikasi faoliyatini amalga oshirishda yagona sxemani ifodalashning zarur yo'li bu amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni-rejalashtirish hisoblanadi. Bunga ko'ra, rejalashtirish doimo jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi vazifalarni bajarishning asosiy usullaridan ya'ni qilinadigan xatti-harakatlarni yagona yo'lga solishiga aytildi.

Rejalashtirish haqida bir qator yuridik va maxsus adabiyotlarda turli soha vakillari tomonidan turlicha tushuncha, fikr va mulohazalar bildirib o'tilgan. Xususan, kriminolog olim G.A.Avanesovning fikricha “Rejalashtirish – muayyan ketma ketlikdagi o'zaro aloqador topshiriqlarni ishlab chiqish, tadbirlarni bajarish tartibi va muddatlarini belgilash” dir.

“Rejalashtirish-boshqaruvi tizimi mrivojlanishining umumiylashtirishini ishlab chiqish, muayyan topshiriqlarni, maqsadlarni amalga oshirishning muddatlarini, ya'ni istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturining asoslanishidir”. Profilaktika (katta) inspektorlari o'zlarining huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyatida rejalashtirish va axborot manbalarining o'zaro axborot almashinishi keng ko'lamlili samara bermoqda .

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida Profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan ishlab chiqiladigan rejalar bir nechta turlarga bo'linadi va ular quyidagicha:

- ❖ Kunlik
- ❖ Oylik
- ❖ Choraklik
- ❖ Yarim yillik
- ❖ Yillik

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faliyatida tuziladigan rejalarda profilaktika xizmati faoliyatini kelgusi davrga yoki muayyan tadbir bo`yicha mo`ljallangan maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun bajarishi lozim bo`lgan tadbirlar, ularni bajarish ketma-ketligi, muddatlari, ijrochilar hamda rejalashtirilgan tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish usullari aks etishi shart. Mazkur faoliyatni amalga oshirishda ma`muriy hududlarda xizmat olib boruvchi profilaktika (katta) inspektorlarining oldiga aniq topshiriq va vazifalar belgilab beriladi. Ta`kidlash kerakki, barcha davlat hokimiyati va huquni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati singari ichki ishlar idoralari faoliyatining o`ziga xos xususiyati uning qat`iy rejalashtirishga asoslanishidadir.

Ichki ishlar idoralarining faoliyatini rejalashtirish O`zbekiston Respublikasi IIVning 1996-yil 24-iyundagi “O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar idoralarida axborot-tahlil ishini rejalashtirishni va axborot-ma`lumot fondini tashkil etish to`g`risida” gi va O`zbekiston Respublikasi IIVning 2017-yil 23-maydagagi “Ichki ishlar organlarida axborot-tahlil va rejalashtirish faoliyatini amalga oshirish tartibi to`g`risida 80-sonli buyrug`i talablari asosida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtida ichki ishlar idoralari profilaktika xizmati faoliyatini rejalashtirishning barcha asosiy yo`nalishlarini tashkiliy jihatdan ta`minlashga imkon beruvchi ancha izchil tizimi mavjud.

XXI asr-axborot va axborot texnologiyalari asridir. Bugungi kunda axborotdan foydalanuvchilar doirasi kengayib, u nafaqat ananaviy istye`molchilar, ya`ni axborot tahlil markazlari, ammaviy axborot vositalari, xavfsizlik idoralarinning, balki jamiyat a`zolarining ham manfaatlarining obyektiga aylanmoqda.

Huquqbuzarliklar Profilaktikasi faoliyatini amalga oshirish jarayonida Axborotni qayta ishslash, yig`ilgan ma`lumotlarni tartiblashtirish, tizimlashtirish, ko`rib chiqish va sharhslash uchun ixchamlashtirgan holda amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytgandau muayyan bir shakilga keltiriladi, ya`ni unda mavjud ma`lumotlar “tiulga kirib gapirib boshlaydi”. Axborot tahlil bo`limlar Vazirlik va Respublika oliv ta`lim muassalari bilan hamkorlikda ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatiga nisbatan aholining munosabatini o`rganish bo`yicha istiqbollarini belgilash borasida ijtimoiy va kriminalogik tadqiqotlar va izlanishlarni o`tkazadi.

➤ Ichki ishlar organlari huquqbuzarliuklat profilaktikasi faoliyatiga oid tadqiqotlar mavzularini belgilaydi va ularni o`tkazish uchun buyrutmalar tayyorlaydi.

- Tadqiqotlarni o'tkazishda boshqa tashkilotlarning jalb etish maqsadida asoslantirilgan taklifni ichki ishlar organlari rahbariyatiga kiritadi.
- O'tkazilgan tadqiqotlarni nazorat qiladi hamda boshqa sohaviy xizmatlarni jalb etilishini ta'minlatydi.
- Vazirlik liy talim muassalari bilan hamkorlikda kriminogen vaziyatni o'zgarishi bo'yicha yillik istiqbolli rejalarini tayyorlaydi va ularni amalga oshiradi.
- Xizmat hududida kriminogen vaziyat va ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatiga nisbatan aholi davlat va fuqorolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat tashkilotlarining munosabatini o'rGANADI.
- Ijtimoiy fikirni o'rganish natijalari bo'yicha ichki ishlar organlari rahbariyati uchun axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlaydi.
- Kriminalogik prognoz va jinoyatchilikning o'zgarishlariga doir istiqbollar asosida jinoyatchilikning oldini olish, kriminogen omillar ta'sirini kamaytirish, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak hisoblanadi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanob borayotga zamonda Axborot komunikatsiya texnalogiyalari shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Ushbu davrda Profilaktika (katta) inspektorlari tomonida har qanday axborot texnalogiyalardan foydalanish va har qanday axbortni izlash topish va ularish kabi harakatlarni amalga oshirish davr talabiga aylanib bormoqda. Ushbu huquq barcha O'zbekiston Respublikasi fuqorolarini yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida ham "Har kim fikirlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega" ekanligi ham ko'rsatilinib o'tilgan. Bugungi kunda Ichki Ishlar Organlarida zamonaviy axborot texnalogiyalardan foydalanishda bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda Profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarni rejalashtirishda eng avvalo o'ziga tegishli bo'lgan axborotdan foydalanish va uni tahlil qilishi kerak hisoblanadi. Axborot tahlili faoliyatini tushunishdan avval "axborot" tushunchasiga tushunish kerak hisoblanadi.

Axborot-deb inson sezgi organlari qabul qiladigan barcha ma'lumotlarga aytiladi. Axborot lotincha "informatio" so'zidan olingan bo'lib, tushintirib, biror narsani bayo n qilishi yoki biror narsani bayon qilish yoki hodisa haqida ma'lumot ma'nosini anglatadi. Inson sezish a'zolari, texnikada turli asboblar va hokozolar yordamida qayd etiladigan tashqi dunyo dalillari ma'lumotlar deb ataladi. Ma'lumotlar aniq vazifani hal etishda zarur va foydali deb topilsa axborotga aytiladi.

Axborot-deganda atrof-muhitda (tabiatdan va jamiyatdan), sezgi a'zolarimiz (ko'z, qulqoq, burun, og'iz, teri) orqali qabul qilib, anglab oladiganhar qanday ma'lumotni tushunamiz.

Axborot-biror voqeа haqidagi batafsil xabar, ma'lumot. Davlatlar o'rtasidagi muzokaralar natijasida tuzilgan bitim yoki shartnoma to'g'risida hukumatning rasmiy xabari. Xalqaro huquda ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasidagi olib boriladigan diplomatik muzokaralar natijasida tuzilgan bitimlar, shartnomalar yoki qabul qilnigan boshqa qarorlar haqidagi xabar ikki yoki undan ortiq davlatlar tomonidan rasmiy elon qilinadi. Ikki davlat o'rtasidagi olib boriladigan muzokaralar haqidagi axborot odatda qo'shma axborot deb ataladi.

Ichki ishlар organlarining profilaktika xizmatlarida axborot-tahlil va rejalashtirish faoliyatiga oid ta'limotlar asosida rahbarlar bugungi kunda yuqori turuvchi raxbariyat tomonidan qo'yilayotgan talablarni bilishlarni va amaliy faoliyatda ularni samarali qo'llay olish, mazkur jarayonni axborot bilan ta'minlashni, tahliliy ishlarni, boshqaruv qarorlarini tayyorlash, qabul qilish va ijrosini hamda nazoratni tashkil qilishni, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash va ish yuritishni tashkil qilish hamda maxsus sharoitlarda ichki ishlар organlarining kuch va vositalarini boshqarish bo'yicha nazariy bilimlarni egallashlari, malaka va ko'nikmalarini hosil qilishlari kerak.

Ichki ishlар organlarida xizmat qilayotgan har bir rahbar xodim axborot-tahlil va rejalashtirish faoliyatini xizmat jarayonida mukammal amalga oshirishi, ular boshqarayotgan tarkibiy tuzilma yoki sohaviy xizmat zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ichki ishlар organlarida xizmat qilayotgan xar bir raxbar xodim axborot-tahlil va rejalashtirish faoliyati asosida tavsiflash, izohlash, prognozlash va tartibga solishdan iborat vazifalarni bajarishi lozim bo'ladi:

Tavsiflash funksiyasi orqali ichki ishlар organlarida axborot-tahlil va rejalashtirish faoliyatini tashkil etish orqali xizmat jarayonini muvofiqlashtirishni, boshqarishni, xizmat jarayonlarni natijalarini tahlil etidi hamda ularga baho beradi.

Izohlash funksiyasi orqali ichki ishlар organlarida axborot-tahlil va rejalashtirish faoliyati xizmat jarayonidagi qonuniyatlarni, shu jumladan, ularga ta'sir qiluvchi omillarni, ichki ishlар organlari kuch va vositalarining faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish va boshqarish usullari, shakllari va mexanizmlarini izohlab boradi.

Prognozlash funksiyasi orqali ichki ishlар organlarida axborot-tahlil va rejalashtirish faoliyati ichki ishlар organlarida xizmat davomida amalga oshirilshgan natijadorlik jarayonlarini amalga oshirish qonuniyatlarini, shu jumladan, ularga ta'sir qiluvchi omillarni, shuningdek ular bilan bog'liq bo'lgan muammolarining kelgusida ichki ishlар organlarida boshqaruvni tashkil etish, muvofiqlashtirish sohasida keltirib chiqaradigan oqibatlarini oldindan bashorat qiladi, ichki ishlар organlarining axborot-

tahlil va rejalarshirish faoliyatini samarali tashkil etish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish kerakligini ko'rsatib beradi.

Tartibga solish funksiyasi orqali ichki ishlar organlarida axborot-tahlil va rejalarshirish faoliyati barcha yo'naliш va turlarining mukammal o'rganib chiqib asosli ravish tegishli buyruqlar asosida ishlarni tashkil qiladi. Ichki ishlar organlarida axborot-tahlil va rejalarshirish faoliyati quyidagi yo'naliшlarda bajaradi: ichki ishlar organlarida boshqaruв va axborot-tahlil faoliyati sub'ektlari va ob'ektlarining bugungi holatini hamda ijtimoiy hayotdagi voqeа, hodisa va jarayonlarning ularga ta'sirini tahlil etish; ichki ishlar organlarining fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuзarliklarning oldini olish va profilaktikasini amalga oshirishni tashkil qiluvchi sub'ektlarning va ular bilan hamkorlik qiluvchi sub'ektlar faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish va boshqarishning yo'naliш, shakl hamda usullarini tadqiq etadi. Ichki ishlar organlarining faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish va boshqarish bo'yicha aniq chora-tadbirlarning amalga oshirilishida har bir holatning avvalgi, hozirgi va kelgusi natijalarini e'tiborga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ;T-2023, 111-bet.
2. Sh.M.Mirziyoyev "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqorolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 21.10.2016-yil.
3. "Yangi O'zbekiston" gazetasi elektron manba: https://yuz.uz/uz/news/jamoat_xavfsizligini_ta'minlashda_profilaktika_inspektorlarini_ro'li ;
4. O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining rasmiy elektron veb sayti manba: <https://iiv.uz/news/profilaktika> inspektorlarining faoliyati bi;lanch bog'liq masalalar;.
5. www.lex.uz elektron qonun hujjatlari to'plami.
6. www.wikipediya.com elektron sayti.
7. "SCIENCE AND INNATION" international scientific journal.